

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI PUL SIYOSATI VA SOLIQLAR

Chorshanbiyev Boyto‘ra

(Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti
“Matematika, tabiiy-gumanitar fanlar” kafedrasи o‘qituvchisi) va

Ollomurodov Nurali

(Denov shahar tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Amir Temur va Temuriylar davrida amalga oshirilgan pul siyosati va soliqlar haqida ma’lumotlar keltirilgan. Katta hududlarni bosqichma-bosqich o‘zi yaratayotgan davlat tarkibiga kiritib ularni yagona markaz ostida birlashtirishi va shu bilan birgalikda ularning iqtisodiy hayoti va moliya tizimini yagona tizimga keltirgan holda rivojlantirishga harakat qildi.

Kalit so‘z: Turon, Samarqand, Movarounnahr, Xitoy, Xo‘tan, Dehli, Bobil, Misr, Rum, Tuzuk, qopcho‘r, targ‘u, tutun, tuz, jon (kumush).

Amir Temur Turon yurtiga yagona hukmdor sifatida ko‘tarilgandan so‘ng Movarounnahrda yashovchi barcha xalqlar intiqlik bilan kutgan jamiyatdagi tinchlik, ularning yashash tarzidagi barqarorlik va kundalik hayotidagi osoyishtalik vujudga keldi. Amir Temur hokimiyatga kelgan ilk davrlariyadoq Samarqand shahrini o‘z davlati uchun poytaxt sifatida tanladi va bu shaharning markaz sifatida o‘z rolini bajarishi uchun kerak bo‘ladigan barcha shart-sharoitlarni yaratishga kirishdi.

Amir Temur mamlakatni siyosiy jihatdan birlashtirish jarayonida qanchalik qat’iyat va shijoat bilan harakat qilgan bo‘lsa, mamlakatning iqtisodiy jihatdan ham yuksalishi uchun qator ishlarni olib bordi. “Amir Temur, ojiz kishilaru raiyatlarni, savdogar dehqonlarni muhofaza etishda qonunlarga rioya qilib, adolat rasmini bajo keltirdi. Asrlar mobaynida hali biror talabgorning ahdu nikohiga kirmagan ikki bo‘yi yetgan go‘zaldek bo‘lmish Eronu Turon mamlakatlarini (Amir sohibqiron) to‘la zabit etish va adolatli siyosat yurgizish orqali shunday boshqarmoqdaki, u yerlarning donishmandlari hayron qolmoqda. Uning adolatiyu siyosati o‘rnatilgan kunlarda Movarounnahrning eng chekka joylaridagin emas, balki, Xitoy va Xo‘tan chegarasidan Dehli atroflarigacha, Bobildan to Misr va Rum hududigacha bo‘lgan yerlarda savdogarlar u yoqda tursin, bolalaru beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin-kumush va eng zarif tijorat mollarini keltiradilar. Hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko‘z

olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu cheksiz ne'mat va poyonsiz marhamat Amir soibqironning siyosati va adolati natijasidir “.

Mamlakat o'z o'rnida ulus, viloyat va o'lkalarni o'z ichiga olar edi. Har bir shahar yoki viloyat hokimi dorug'a hisoblanib, u tomonidan unga oliv hukmdor tomonidan berilgan hudud boshqarilar edi. Shu o'rinda dorug'a o'ziga yuklatilgan hududni boshqarish davomida markaziy hokimiyat tomonidan berilgan buyruqlarga so'zsiz itoat etar va vaqtı-vaqtı bilan belgilangan tartibda askar va soliq yig'ish ishlariga ham mas'ul edi.

Amir Temur davrida davlat xazinasi ikki fonddan iborat bo'lган. Dastlabkisi asosiy xazina, unda asosan uzoq davrlar davomida avloddan-avlodga meros tariqasida o'tgan durdonalar saqlangan. Ikkinci qiam xazinasi esa doimiy harajatlar uchun foydalanilgan. Agarda harajatlar bilan bog'liq muammolar kelib chiqib mablag'lar yetishmay qolgan paytda birinchi fonddan “ qarz olib turilar va kelgusi davrdagi daromadlar hisobidan to'ldirilar edi. Temurning xazina tizimi tartiblaridagi asosiy qilgan ishi shuki, u birinchi jamg'arma fondidan foydalanmagan holda ikkinchi fondni yaxshiroq shakllantirish hamda mablag'larning sarflanishi bo'yicha olib boriladigan doimiy nazoratni tashkil etdi. Bundan tashqari ikki fondning ham kirim chiqimlari doimiy tartibda yozib olinadigan bo'ldi. Shuningdek, birinchi fonddan ikkinchi fondga sarmoya ajratish ma'lum bir tizimdagi mas'ul vazirlar vakolatiga bo'ysundirildi. Vazirliklar tizimida amalga oshiriladigan kirimlar va chiqimlar vazirlar tomonidan doimiy nazoratda ushlanadigan bo'ldi. Yana bir muhim moliyaviy yondashuvlardan biri davlat xazinasi ya'ni markaziy xazina va uluslar o'rtasida amalga oshiriladigan moliyaviy ishlarga aniqlik kiritildi. Qadimdan ma'lumki, davlatlar boshqa bir hududlarni egallagan vaqtida hudud bilan birga mag'lub etilgan tomonidan tovon sifatida boj undirgan. Yangidan-yangi soliqlar joriy etish tufayli soliqlar miqdori me'yordan oshirib yuborilgan. Amir Temur esa buning aksini amalga oshirgan.

“Amr etdimki, - deb yozgan edi u “Tuzuklar” da, - raiyatdan mol xiroj yig'ishdan ularni og'ir ahvolga solishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Nega-ki raiyatni xonavayron qilish davlat xazinasini kambag'allashtirishga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa, sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Темур тузуклари. Т., “Шарқ”. 2005-й
2. А. М. Камышев. Клады Медных Монет Тимуридов и Шейбанидов. МИЦАИ . Самарканд- 2013.

3. Шпенёва Людмила Юрьевна. “Темурийлар даврида Фарғона ва Шошнинг пул муомаласи (мис тангалар)” диссертацияси. 1997-й.
4. Тўхтиев И. Амир Темур ва Темурийларнинг молия пул сиёсати. Т., “ЎЗБЕКИСТОН”. 2006-йил.
5. Руи Гонсалес де Клавихо “Самарқандга - Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406)” Т., “ЎЗБЕКИСТОН” – 2010.
6. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. – Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. – B.
7. Amir Temur va temuriylar haqida Misr kutubxonalarida saqlanayotgan manba va qo‘llanmalar Fihristi. Muqaddima muallifi: Boboxonov Sh. Tayyorlovchi: Nasrullo Mubashshir at-Taroziy. – O‘zbekiston elchixonasi Qohira shahri, 1996.
8. Ртвеладзе Э.В., Сайдов А.Х. Амир Темур в зеркале мировой науки. – Ташкент: Издательский дом Мирэкономики и права, 1999.
9. Якубовский А.Ю. Образы старого Самарканда (Время Темура) // Восток. Кн. 5, М. Л., 1925.